

Jizzax shahar “Markaziy dehqon bozor” aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati yakunlari bo‘yicha navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi
BAYONNOMASI № - 01/2023

2023 yil 17 iyun, soat 15-00

Jizzax shaxri

Yig‘ilishda jamiyat kuzatuv kengashi a‘zosi R.Ismoilov so‘z olib, sanoq komissiyasining bayonnomasiga ko‘ra, jamiyat aksiyadorlarining bugungi umumiy yig‘ilishida 2023 yil 13 iyun holatiga yopilgan aksiyadorlar reestrída qayd etilgan 89 802 ta ovoz berish xuquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlardan 55 700 ta ovoz berish xuquqiga ega bo‘lgan 17 nafar aksiyadorlar ro‘yxatdan o‘tganligini, bu jami ovoz beruvchi aksiyalarning 62,03 foizni tashkil qilishi, shu sababli yig‘ilishni o‘tkazishga kворum yig‘ilganligini ma‘lum qilib, yig‘ilishni o‘tkazishga rozilik beruvchilar o‘z ovozlari (qo‘l ko‘tarish yo‘li bilan) berishlarini so‘radi.

Yig‘ilishni ochish bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Tarafdor 55 700 ta ovoz,

Qarshilar - yo‘q,

Betaraflar - yo‘q

Ko‘pchilik ovoz bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi ochiq deb e‘lon qilindi.

Mazkur yig‘ilishda jamiyatning Kuzatuv Kengashi a‘zolari, Jizzax shahar hokimligining ishonchnoma asosida ishtirok etayotgan vakillari (A.Ergashev, R.Ismayilov, A.Abdujalilov), jamiyat boshqaruvi raisi, jamiyatda ishlovchi mas‘ul xodimlardan 11 nafar vakillar ham ishtirok etishmoqda.

Bugungi o‘tkaziladigan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi shahar hokimligidan ishonchnoma asosida tashrif buyurgan Ismayilov Rahmatilla Jarashevich raisligida va jamiyatning qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash bo‘yicha rais o‘rinbosari J.Hasanboev kotibligida o‘tkazish masalasi aksiyadorlar tomonidan ochiq ovoz bilan ma‘qullandi.

Tarafdor 55 700 ta ovoz,

Qarshilar - yo‘q,

Betaraflar - yo‘q

KUN TARTIBI:

- 1) Yig‘ilish reglamentini tasdiqlash;
- 2) Sanoq komissiyasi son va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;
- 3) Jamiyatning 2022 yilgi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati uchun tasdiqlangan biznes rejaning bajarilishi to‘g‘risida jamiyat raisining hisobotini eshitish;
- 4) Jamiyatning 2022 yil yakuni bo‘yicha yillik balansi, moliyaviy natijalar hisoboti va sof foyda taqsimoti bo‘yicha jamiyat bosh hisobchisining hisobotini eshitish va tasdiqlash;
- 5) Jamiyatning 2022 yil yakuni bo‘yicha taftish komissiyasining hisobotini eshitish va tasdiqlash;
- 6) Jamiyatning 2022 yilgi faoliyati bo‘yicha “Perfekt audit” auditorlik tashkiloti MCJ tomonidan 2022 yil 19 aprelda berilgan auditorlik tekshiruvi xulosasini tasdiqlash;
- 7) Jamiyat boshqaruvi raisi bilan 2022 yil 17 iyunda 3 yil muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ko‘rib chiqish;
- 8) Jamiyatning 2022 yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati yakuni bilan olingan sof foydaning 80 foizini dividend to‘loviga, qolgan 20 foizini zaxira fondiga ajratish;
- 9) Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining 2022 yil yakunlari bo‘yicha hisobotini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- 10) Jamiyatning 2023 yil uchun “Biznes rejasi”ni ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- 11) Jamiyatning Kuzatuv kengashi a‘zolari tarkibini saylash;
- 12) Jamiyatning taftish komissiyasi a‘zolarini saylash;
- 13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 martdagi “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-101-sonli qarorining 2-bandiga asosan:

- Respublika Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasining 2023 yil 27 apreldagi 03/03-03-888-sonli xatiga ko'ra "Markaziy dehqon bozori" AJda investitsiya kiritishga oid kelishuv (bitim, shartnoma, memorandum)larni, majburiy tartibda Davaktiv agentligi bilan kelishilishi bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish kiritish;

- Respublika Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasining 2023 yil 10 maydagi 03/03-03-1021-sonli xatida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqqan holda jamiyatning ichki hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish masalasini ko'rib chiqish.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan umumiy yig'ilishni o'tkazish bo'yicha reglamentini tasdiqlash taklifi kiritildi:

Ma'ruzachiga 5-7 daqiqagacha, muzokaraga chiquvchilarga 2 daqiqadan va kun tartibidagi birinchi va ikkinchi masalalar yuzasidan ochiq ovoz berilib, qolgan masalalar bo'yicha ovoz berish barcha masalalar ko'rib bo'lingandan so'ng byulletenlarda ifoda qilish taklif qilindi.

Reglamentni tasdiqlash bo'yicha ovoz berish natijasi:

Tarafdor 55 700 ta ovoz,

Qarshilar - yo'q,

Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi ikkinchi masala sanoq komissiyasi son va shaxsiy tarkibini saylash bo'yicha yig'ilish raisi so'z olib, jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan bugungi umumiy yig'ilishga sanoq komissiyasi son tarkibi 3 ta, ular aksiyadorlardan T.Boboev, V.Mavlonov va D.Normatovlar nomzodi berilganligini ma'lum qilib, sanoq komissiyasi son va shaxsiy tarkibini tasdiqlash masalasini ovozga qo'ydi.

Tarafdor 55 700 ta ovoz,

Qarshilar - yo'q,

Betaraflar - yo'q.

Yig'ilish kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha jamiyatning 2022 yil moliyaviy-xujalik faoliyati yakunlari bo'yicha hisobot berish uchun jamiyat boshqaruvi raisi K.Yarmatovga so'z berildi. K.Yarmatov jamiyatning 2022 yil davomida olib borilgan ishlar hamda 2023 yilda bajariladigan eng asosiy vazifalar to'g'risida hisobot berdi (hisobot ilova qilinadi).

Jamiyat boshqaruv raisining hisoboti bo'yicha yig'ilish ishtirokchilaridan fikrlarini byulletenlarda ifoda qilishlari so'raldi.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan jamiyat bosh hisobchisi K.Abduvaitov 2022 yil yakunlari hamda jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va buxgalteriya balansi bo'yicha hisobot berdi. (K.Abduvaitovning hisoboti ilova qilinadi).

Bosh hisobchining hisoboti bo'yicha yig'ilish ishtirokchilaridan yakuniy xulosalarini byulletenlarda ifoda qilishlari so'raldi.

Kun tartibidagi beshinchi masala, jamiyat taftish komissiyasi a'zosi D.Nazarov so'zga chiqib, jamiyat taftish komissiyasining hisobotini o'qib eshittirdi (bayonnomaga ilova qilinadi).

Taftish komissiyasining xulosasidan kelib chiqqan holda yig'ilish raisi R.Ismayilov tomonidan jamiyat raisi K.Yarmatovga, bosh hisobchi K.Abduvaitov va huquqshunos O.Yuldoshevlar bilan birgalikda bozorda elektr tarmoqlari korxonasidan bo'lgan mavjud qarzdorliklarni to'liq qaytadan tahlildan o'tkazish, haqiqiy holatga aniqlik kiritish hamda barcha ichki imkoniyatlardan keng foydalangan holda bozorni moliyaviy sog'lomlashtirish choralarini ko'rish lozimligi haqida ko'rsatma berildi.

Taftish komissiyasi xulosasi eshitilib bo'lingach yig'ilish ishtirokchilaridan hisobot bo'yicha yakuniy fikrlarini byulletenlarda ifoda qilishlarini so'radi.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha jamiyat bosh hisobchisi K.Abduvaitov so'zga chiqib, jamiyat aksiyadorlarini jamiyatning 2022 yil moliya xo'jalik faoliyatiga "Perfekt audit" auditorlik tashkiloti MCJ tomonidan berilgan auditorlik xulosasi bilan tanishtirdi va uni tasdiqlash bo'yicha ovozlarni byulletenlarda ifoda qilishlarini so'radi.

Kun tartibidagi **ettinchi** masala b'uyicha yig'ilish raisi R.Ismayilov so'z olib, jamiyatning Ustav fondida shahar hokimligining ulushi 58,21 foizni tashkil etishini inobatga olib, bugungi kunda bozorda rahbar lavozimida ishlab kelayotgan Yarmatov Keldiyor tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni alohida ko'rib chiqqan holda u bilan 2022 yil 17 iyunda 3 yil muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi bo'yicha yig'ilish ishtirokchilarining fikr va takliflarini so'radi.

Muzokaralar davomida ta'sischilardan A.Musaev, N.To'raev, B.Musaev va boshqalar so'zga chiqishib, jamiyat rahbari tomonidan olib borilayotgan ishlarni ijobiy deb baholashdi va u bilan shartnoma shartlariga hech qanday o'zgartirishlarsiz davom ettirilishi bo'yicha takliflar bildirishdi. Yig'ilish raisi R.Ismayilov ham ushbu masalada shahar hokimligining fikrlarini hamda o'z fikr va takliflarini aytib o'tib, K.Yarmatov bilan tuzilgan mehnat shartnomasi davom ettirilishi haqida munosabat bildirdi.

Aksiyadorlardan bu masalada ham o'z fikrlarini byulletenlarda ifoda qilishlari so'raldi.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha jamiyatning qimmatli qog'ozlar bilan ishlash bo'yicha rais o'rinbosari J.Hasanboev so'zga chiqib, jamiyatning 2022 yilda olingan daromadidan hisoblangan sof foydaning 80 foizini dividend to'loviga, qolgan 20 foizini jamiyatning zahira fondiga yo'naltirish bo'yicha taklif kiritdi. Shuningdek, 2022 yil uchun har bir aksiyaga 246 so'm 14 tiyindan hisoblanishi ta'kidlandi.

Kiritilgan taklif yuzasidan aksiyadorlardan Sh.Qodirov va A.Musaevlar so'zga chiqishib, o'z fikrlarini bildirib o'tishdi va yuqoridagi taklifni ma'qullashdi.

Ushbu masala bo'yicha ishtirokchilardan ovozlarini byulletenlarda ifoda qilish so'raldi.

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala bo'yicha jamiyat Kuzatuv Kengashining 2022 yilgi faoliyati bo'yicha kuzatuv kengashining hisoboti kengash a'zosi A.Musaev tomonidan o'qib berildi (bayonnomaga ilova qilinadi).

Mazkur masala bo'yicha ham aksiyadorlardan fikrlarini byulletenlarda belgilash so'raldi.

Kun tartibidagi o'ninchi masala yuzasidan jamiyat bosh xisobchisi K.Abduvaitov so'z olib, yig'ilganlarni 2023 yil uchun tuzilgan "Biznes reja" loyihasi bilan tanishtirib o'tdi.

Taklif etilayotgan "Biznes reja" ko'rsatgichlariga ko'ra joriy yilda bozor tomonidan 3.6 mlrd.so'mdan ortiq umumiy daromad, 25.0 mln.so'm atrofida sof foyda olish ko'zda tutilmoqda.

Yig'ilish raisi "Biznes reja" ko'rsatgichlari bo'yicha qo'shimcha takliflar bo'lmaganligi sababli aksiyadorlardan o'z ovozlarini byulletenlarda ifoda qilishlarini so'radi.

Kun tartibidagi o'n birinchi masala yuzasidan yig'ilish raisi R.Ismayilov jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining yangi tarkibiga quyidagi nomzodlarni tavsiya etdi:

1. Ergashev Aziz	Jizzax shahar hokimligi	Hokim o'rinbosari
2. Ismayilov Rahmatilla	Jizzax shahar hokimligi	Bosh mutaxassis
3. Abdusalilov Asil	Shahar moliya bo'limi	Bo'lim mudiri
4. Sidikov Rahmat	Aksiyador	Nafaqada
5. Musaev Abduvali	Aksiyador	Nafaqada
6. Haydarova Buvsaoat	Aksiyador	Nafaqada
7. Uralov Dilshod	Mustaqil a'zo	Shaxar hokimligi xodimi

Shundan so'ng, aksiyadorlar tomonidan jamiyatning Kuzatuv Kengashi raisi vazifasiga shahar hokimi tomonidan tavsiya etilgan nomzod, shahar hokimining o'rinbosari Ergashev Aziz Mamarasulovich nomzodi bir ovozdan saylandi.

Kun tartibidagi o'n ikkinchi masala yuzasidan Kuzatuv Kengashi a'zosi R.Ismayilov so'zga chiqib, jamiyat taftish komissiyasi a'zolarining yangi tarkibini saylash bo'yicha aksiyadorlar tomonidan berilgan

nomzodlar (D.Nazarov, A.Sarimsoqov va Sh.Kadirov) bilan tanishtirib, aksiyadorlardan ushbu nomzodlarga o'z ovozlarini byulletenlarda ifoda qilishlari so'raldi.

Yig'ilish kun tartibidagi o'n uchinchi masala qilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasining 27.04.2023 yildagi 03/03-03-888-sonli xatiga ko'ra "Markaziy dehqon bozori" AJga investitsiya kiritishga oid kelishuv (bitim, shartnoma, memorandum)larni, majburiy tartibda Davaktiv agentligi bilan kelishilishi bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish kiritish, shuningdek, mazkur boshqarmaning 10.05.2023 yildagi 03/03-03-1021-sonli xatida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqqan holda jamiyatning ichki hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish lozimligi belgilangan.

Shu munosabat bilan bundan buyon, "Markaziy dehqon bozori" AJga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritishga oid kelishuv (bitim, shartnoma, memorandum)lari bo'yicha oldindan majburiy tartibda Davaktiv agentligining xulosasi olinishi, shuningdek, "Markaziy dehqon bozori" AJning rahbari va uning o'rinbosarlari tanlov asosida tayinlanishi, qonun hujjatlariga muvofiq davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar taqdim etilmaganda yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganda ijroiya organi rahbarlari (rahbar, bosh hisobchi va rahbar o'rinbosarlari) rag'batlantirilmasligi bo'yicha jamiyatning ichki hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish va qonun talablariga moslashtirish zarur bo'ladi.

Yuqorida aksiyadorlar tomonidan muhokama qilingan barcha masalalardan kelib chiqqan holda, yakuniy so'z sifatida jamiyat aksiyadorlaridan A.Musaev, Sh.Kadirov, B.Musaev, T.Boboev, D.Normatov, J.Hasanboev, Jizzax shahar hokimligi nomidan R.Ismayilovlar alohida so'z olishib, "Markaziy dehqon bozori"ning bugungi moliyaviy holatini yaxshilash, aholiga zarur shart-sharoitlar yaratish holati hamda ayni kunda aholi ehtiyoji uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar to'g'risida o'zlarining fikr va takliflarini bildirishdi.

Shundan so'ng, kun tartibidagi barcha masalalar muhokama qilib bo'lingach, yig'ilish raisi aksiyadorlardan byulletenlarni to'ldirib sanoq komissiyasiga topshirishlarini so'radi.

Sanoq komissiyasi tomonidan kun tartibidagi masalalar yuzasidan byulletenlarda berilgan ovozlar soni sanab chiqilganda, berilgan ovozlar soni quyidagicha bo'lganligi ma'lum bo'ldi.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish varag'ida 55 700 ta ovozga ega bulgan 17 nafar aksiyadorlar ro'yxatdan o'tib byulletenlar olgan. Yig'ilish yakunida jami 17 ta byulleten yig'ib olinib, ovoz berishda ishtirok etgan aksiyalar soni 55 700 tani tashkil kilgan. Shundan:

- | | |
|--|--------------------------------------|
| -Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. | Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q. |
| -Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. | Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q. |
| -Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. | Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q. |
| -Kun tartibidagi turtinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. | Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q. |
| -Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. | Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q. |
| -Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. | Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q. |
| -Kun tartibidagi yettinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. | Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q. |
| -Kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan | |

-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q.

-Kun tartibidagi to'qqizinchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q.

-Kun tartibidagi o'ninchi masala yuzasidan
-Yoqlab ovoz berganlar: 55 700 ta, 100 %. Qarshilar - yo'q, Betaraflar - yo'q.

-Kun tartibidagi o'n birinchi kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzodlar saylash masalasi yuzasidan (eng yukori ovoz soni tartibi buyicha):

Nomzodning ismi, familiyasi	Tarafdor ovozlar soni
1. Ergashev Aziz – Jizzax shahar hokimligi, Kuzatuv Kengashi raisi	55 700 ta ovoz
2. Ismoilov Rahmatilla – Jizzax shahar hokimligi, Kengashi a'zosi	55 700 ta ovoz
3. Abdusalilov Asil –Shahar Moliya bo'limi, Kuzatuv Kengashi a'zosi	55 700 ta ovoz
4. Sidikov Rahmat – jamiyat aksiyadori, Kuzatuv Kengashi a'zosi	55 700 ta ovoz
5. Musaeu Abduvali – jamiyat aksiyadori, Kuzatuv Kengashi a'zosi	55 700 ta ovoz
6. Haydarova Buvsodat – jamiyat aksiyadori, Kuzatuv Kengashi a'zosi	55 700 ta ovoz
7. Uralov Dilshod - shaxar hokimligi xodimi, Kengash mustaqil a'zosi	55 700 ta ovoz

-Kun tartibidagi o'n ikkinchi masala taftish komissiyasi a'zoliciga nomzodlar saylash masalasi yuzasidan (eng yuqori ovoz soni tartibi bo'yicha):

No	Nomzodning ismi, familiyasi	Tarafdor ovozlar soni
1	Nazarov Dilshod – taftish komissiyasi raisi	55 700 ta ovoz
2	A.Sarimsoqov – komissiya a'zosi	55 700 ta ovoz
3	Sh.Kadirov – komissiya a'zosi	55 700 ta ovoz

Ovoz berish natijalarini hisobga olib, "Jizzax Markaziy dehqon bozor" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi

QAROR QILADI:

- Umumiy yig'ilishni o'tkazish bo'yicha reglament tasdiqlansin.
- Bugungi umumiy yig'ilishga sanoq komissiyasi son tarkibi 3 ta, T.Boboev, V.Mavlonov, D.Normatovlardan iborat shaxsiy tarkibi tasdiqlansin.
- Jamiyat boshqaruv raisi K.X.Yarmatovning jamiyatning 2022 yilgi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari va biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha hisoboti tasdiqlansin.
- Jamiyatning 2022 yil uchun tuzilgan buxgalteriya balansi, moliyaviy foyda va zararlari bo'yicha jamiyat bosh hisobchisi K.Abduvaitovning hisoboti tasdiqlansin.
- Jamiyatning 2022 yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha taftish komissiyasining hisoboti tasdiqlansin.
- Jamiyatning 2022 yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha "Perfekt audit" auditorlik tashkiloti MCJ tomonidan berilgan xulosasi tasdiqlansin.
- Jamiyat boshqaruvi raisi Yarmatov Keldiyor Xudoynazarovich bilan 2022 yil 17 iyunda 3 yil muddatga tuzilgan mexnat shartnomasi tegishli tartibda davom ettirilsin.
- Jamiyatning 2022 yil moliyaviy yil yakunlari bo'yicha olingan 27 630.1 ming so'mlik sof foydaning 80 foizi, ya'ni 22 104 800 so'mi aksiyadorlarga dividend to'loviga, qolgan 20 foizi jamiyatning zahira fondiga ajratilsin. 2022 yil uchun har bir aksiyaga 246 so'm 14 tiyindan dividend hisoblansin hamda to'lash muddati 90 kun etib belgilansin.
- Jamiyat kuzatuv kengashining 2022 yil faoliyati bo'yicha hisoboti tasdiqlansin.
- Jamiyatning 2023 yil uchun tuzilgan "Biznes rejasi" tasdiqlansin hamda undagi ko'rsatkichlarni to'liq bajarish choralari ko'rish jamiyat raisi va bosh hisobchisi zimmasiga yuklatilsin.
- Jamiyatning yangi Kuzatuv Kengashi a'zolari quyidagi tarkibda saylansin:

- Ergashev Aziz – Jizzax shahar hokimining o‘rinbosari, Kuzatuv Kengashi raisi
- Ismayilov Rahmatilla– Jizzax shahar hokimligi vakili, Kengashi a'zosi
- Abdusalilov Asil–Shahar moliya bo‘limi mudiri, Kuzatuv Kengashi a'zosi
- Sidikov Rahmat – jamiyat aksiyadori, Kuzatuv Kengashi a'zosi
- Musaev Abduvali – jamiyat aksiyadori, Kuzatuv Kengashi a'zosi
- Haydarova Buvsaadat – jamiyat aksiyadori, Kuzatuv Kengashi a'zosi
- Uralov Dilshod - shahar hokimligi xodimi, Kengash mustaqil a'zosi

12. Jamiyatning yangi taftish komissiyasi a'zolari quyidagi tarkibda saylansin.

Nazarov Dilshod
Sarimsoqov Abdumannon
Kadirov Sherali

13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasining 27.04.2022 yildagi 03/03-03-888-sonli hamda 10.05.2023 yildagi 03/03-03-1021-sonli xatlari ijro uchun qabul qilinsin.

Mazkur xatlarga ko‘ra:

“Markaziy dehqon bozori” AJga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritishga oid kelishuv (bitim, shartnoma, memorandum)lari bo‘yicha oldindan majburiy tartibda Davlat agentligining xulosasi olinishi shartligi belgilab qo‘yilsin.

Shuningdek, “Markaziy dehqon bozori” AJning rahbari va uning o‘rinbosarlari bundan keyin tanlov asosida tayinlanishi, qonun hujjatlariga muvofiq davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar taqdim etilmaganda yoki o‘z vaqtida taqdim etilmaganda ijroiya organi rahbarlari (rahbar, bosh hisobchi va rahbar o‘rinbosarlari) rag‘batlantirilmasligi belgilab qo‘yilsin.

Mazkur ikkita masala bo‘yicha jamiyatning ichki hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lsa, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va qonun talablariga moslashtirish topshirilsin.

14. Ushbu yig‘ilish bayonining ijrosini ta'minlash jamiyat ijro organi K.X.Yarmatov zimmasiga yuklatilsin.

Yig‘ilish raisi:
Bayonnoma tuzuvchi:



R. J. Ismayilov
J. Hasanboev

Bayonnoma 2023 yil « 05 » iyul kuni tuzildi va imzolandi.